

**Tarbiya fanini o'qitishda inklyuziv yondashuvning psixologik-pedagogik
xususiyatlari**

Bayjanova Sadokat Ilxamovna
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annatsiya. Ushbu maqolada tarbiya fanini o'qitishda inklyuziv yondashuvning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tarbiyaviy fanlarni o'qitish texnologiyalarini ta'lim oluvchilarning holatidan ya'ni individual jixatiga binoan yondashish, differensiyal o'qitish jarayonlari haqida so'z boradi. Bugungi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borilishi va ijtimoiy hayotda hammaning o'z o'rniga ega bo'lishi, asosiy jarayon sifatida rivojlanishidir.

Tayanch so'zlar: integratsiya, differensiallashtirish, kognitiv tayyorgarlik, rubrikalashgan baholash, qadriyatlar, bilim, ko'nikma, refleksiya, kooperativ ta'lim, insonparvarlik falsafasi.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о педагогико-психологических особенностях инклюзивного подхода в преподавании предмета воспитание. Рассматриваются вопросы применения технологий обучения воспитательным дисциплинам с учётом индивидуальных особенностей и состояния обучающихся, а также процессы дифференцированного обучения. Одной из основных целей современного образования является развитие инклюзивного обучения, основанного на совместной деятельности его участников, обеспечении каждому своего места в социальной жизни и формировании полноценного участия в обществе.

Ключевые слова: интеграция, дифференциация, когнитивная подготовка, рубриковое оценивание, ценности, знания, навыки, рефлексия, кооперативное обучение, философия гуманизма.

Annotation: This article presents information on the pedagogical and psychological characteristics of an inclusive approach in teaching the subject of Moral Education. It discusses the application of teaching technologies for educational disciplines based on learners' individual characteristics and conditions, as well as the processes of differentiated instruction. One of the main goals of modern education is the development of inclusive education through collaborative interaction among its participants, ensuring equal participation in social life and enabling everyone to have their own place in society.

Keywords: integration, differentiation, cognitive readiness, rubric-based assessment, values, knowledge, skills, reflection, cooperative learning, philosophy of humanism.

Kirish. Jahonda ta'lim tizimini insonparvarlik, teng imkoniyatlar va inklyuzivlik tamoyillari asosida takomillashtirishga qaratilgan islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. Bugungi globallashtirish davrida har bir shaxsning ta'lim olish huquqini ta'minlash, jismoniy yoki ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni umumiy ta'lim muhitiga integratsiyalash — zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Inklyuziv tarbiya jarayonida baholash va differensiallashtirish mexanizmlari o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida ishlaydi. Bu yondashuvda har bir o'quvchining imkoniyatlari, o'rganish sur'ati va kognitiv tayyorgarlik darajasi inobatga olinadi. Maqsad — barcha o'quvchilarni bir xil natijaga emas, balki shaxsiy rivojlanish yo'liga yo'naltirishdir. Shu bois, Tomlinson [8] tomonidan ilgari surilgan differensiallashtirish tamoyillari (mazmun, jarayon, natija, muhit) inklyuziv ta'lim uchun muhim asos hisoblanadi.

Misol uchun aytsak, mazmunni differensiallashtirishda o'qituvchi tarbiya darsining asosiy g'oyasini saqlagan holda, o'quvchilar uchun turli murakkablikdagi matnlar, misollar yoki vizual materiallar taklif etadi. Ba'zi o'quvchilar uchun soddalashtirilgan matn yoki misol ishlatiladi, boshqalar esa chuqur tahlil talab qiladigan material bilan ishlaydi. Bu yondashuv o'quvchining shaxsiy kognitiv imkoniyatiga mos keladi va ishtirokni kuchaytiradi.

Jarayonni differensiallashtirish o'quv faoliyatining turli shakllarini — guruh, juftlik, yakka tartibdagi ishlashni uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi. Masalan, tarbiya mavzusida axloqiy vaziyatlarni tahlil qilishda ayrim o'quvchilar muloqotga kirishish orqali, boshqalar esa yozma tahlil yoki chizma orqali o'z fikrini ifodalaydi. O'qituvchi bu jarayonda fasilitator bo'lib, o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishini qo'llab-quvvatlaydi.

Natijani differensiallashtirish o'quvchilarga o'z yutuqlarini turlicha ifoda etish imkonini beradi. Bir o'quvchi yozma insho tayyorlasa, boshqasi plakat, yana biri video lavha yoki intervyu shaklida o'z fikrini bildiradi. Bu yondashuv tarbiya darsidagi asosiy maqsad — o'quvchining qadriyatlar tizimini mustaqil shakllantirish — bilan uyg'unlashadi.

Muhitni differensiallashtirish esa o'quvchilarning hissiy va ijtimoiy holatini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. Sinfda tinch zonalar, vizual belgilar, yordamchi kartochkalar, individual muloqot uchun vaqt kabi elementlar yaratiladi. Bunday muhit o'quvchining o'zini xavfsiz his etishiga va faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Baholash mexanizmlarida esa shakllantiruvchi baholash (ingliz tilida formative assessment nomi bilan mashhur) tamoyili yetakchilik qiladi. Wiliam [6] ta'kidlaganidek, bunday baholashning mohiyati "keyingi qadam"ni ko'rsatishda — o'quvchi qaerda ekanini, qayerga borishini va qanday yo'l bilan borishini aniqlashdadir. Hattie va Timperley [7] esa samarali qayta aloqa (feedback)ni "rivojlanish yo'riqnomasi" sifatida baholaydi. Shu bois, tarbiya darslarida baholash

jarayoni jarayonning o'ziga aylanishi lozim: o'quvchi nafaqat natijani, balki o'zining o'sish dinamikasini ham kuzatadi.

Rubrikalashgan baholash tizimi bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi har bir topshiriq uchun aniq mezonlar (masalan, "axloqiy tahlil chuqurligi", "dalil keltirish", "hurmatli muloqot") ishlab chiqadi. O'quvchi esa o'zini shu mezonlar bo'yicha baholaydi yoki tengdosh bahosidan foydalanadi. Bu shaffoflik va adolatni ta'minlaydi.

Lozman va hammualliflari [9] bunday yondashuvni inklyuziv madaniyat bilan bog'laydi: o'qituvchi baholashni nazorat emas, rivojlantiruvchi muloqot vositasi sifatida ko'radi. Natijada o'quvchilar bahodan qo'rqmaydi, aksincha uni o'sish imkoniyati deb biladi.

Skandinaviya tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, differensiallashtirish va shakllantiruvchi baholash — bu nafaqat metodik qaror, balki maktab qadriyati. Har bir bola muvaffaqiyatga erishishi mumkin, degan ishonch tarbiya fanining asosiy falsafasiga aylanadi [3].

Quyidagi jadval bu mexanizmlarning uyg'unlashgan ko'rinishini ifodalaydi:

Jadval 1.1. Tarbiya darsida differensiallashtirish va baholash uyg'unligi

Yo'nalish	Amaliy moslashtirish	Baholash usuli	O'quvchi roli	O'qituvchi roli
Mazmun	Qisqartirilgan yoki boyitilgan matnlar	Mezonga mos rubrik	O'zini baholash	Yo'naltiruvchi
Jarayon	Guruh, juftlik va individual ishlash	Kuzatuv varaqalari	Refleksiya yozuvi	Fasilitator
Natija	Tanlovli mahsulot (esse, plakat, video)	"Keyingi qadam" feedbek	Mahsulot himoyasi	Kouch
Muhit	Tinch zonalar, vizual qo'llov	Doimiy mikro-feedbek	Hamkorlik qoidalari	Moderator

Ushbu tizimning mohiyati shundaki, har bir o'quvchi o'z o'sish trayektoriyasiga ega bo'ladi. Shakllantiruvchi baholash orqali o'quvchi o'z kuchli va zaif tomonlarini ko'radi, differensial topshiriqlar orqali esa o'ziga mos yo'lni tanlaydi. Natijada inklyuziv ta'lim shunchaki "moslashtirilgan" emas, balki adolatli, rivojlantiruvchi va har bir shaxsni qamrab oluvchi ta'lim modeliga aylanadi.

Inklyuziv tarbiya jarayonida psixologik xavfsizlik o'quvchi ovoziining tabiiy natijasidir. Agar bola o'z fikrini erkin ayta olsa, bu sinfda ishonch va hamjihatlik madaniyati mavjudligidan dalolat beradi. Bandura nazariyasidagi "ijtimoiy o'rganish" bu yerda aynan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonchli aloqada namoyon bo'ladi: o'qituvchi konstruktiv muloqotni ko'rsatadi, o'quvchi esa bu modelni o'z xatti-harakatiga tatbiq etadi [2]. Tarbiya darsida bunday muloqot orqali bolalar nafaqat

axloqiy tushunchalarni o'rganadi, balki ijtimoiy o'zaro munosabatlarni ham anglay boshlaydi — bu esa “o'rganishning ichki mexanizmi”ni faollashtiradi.

Florian va Black-Hawkins fikricha, inklyuziv o'qituvchi “farqlilikni darsning muammosi emas, balki boyligi” sifatida ko'radi [1]. Tarbiya fanida bu ayniqsa muhim, chunki turli dunyoqarash va oilaviy qadriyatlar bilan kelgan o'quvchilar o'z fikrlarini baham ko'rganida, sinf kichik jamiyat modeliga aylanadi. Bu muhitda adolat faqat baholash mezoni emas, balki o'zaro hurmatning psixologik asosi bo'ladi.

Rix (2013) “inklyuziya shunchaki imkon yaratish emas, balki ijtimoiy adolatni o'rgatish vositasi” deb ta'riflaydi [4]. Shu bois, o'quvchi ovozini faollashtirish faqat “fikir bildirish” emas, balki shaxsni tarbiyalashning psixologik mexanizmi hisoblanadi. O'quvchi o'z fikrini aytishdan qo'rqmasa, bu sinfda psixologik xavfsizlik shakllanganini bildiradi.

Ainscow (2008) fikricha, inklyuziv sinfda pedagogik yondashuv “yordam beruvchi emas, kuchaytiruvchi” bo'lishi kerak — bu shaxsning qadrini oshiradi, o'zini foydali his qilish hissini beradi [10]. Masalan, tarbiya darsida o'qituvchi “Men kimman?” yoki “Menga nima uchun ishonishadi?” kabi savollar orqali o'quvchini o'z o'rniga haqida o'ylashga undaydi. Bu savollar o'quvchi ichki motivatsiyasini qo'zg'atadi, lekin hech kimni majbur qilmaydi — bu erkin tanlov asosidagi refleksiya shaklidir.

Biroq Yevropa Agentligi (2014) hisobotlarida ko'rsatilganidek, inklyuziv muhitda adolatli tizim faqat o'qituvchi harakati bilan emas, balki institutsional darajadagi qo'llov — resurs, tayanch xizmatlar, va ijtimoiy sheriklik orqali ta'minlanadi [5]. Agar bu tizim yo'q bo'lsa, o'qituvchi yondashuvi sustlashadi, o'quvchilar o'rtasidagi psixologik tenglik buziladi. Shu sababli, tarbiya fanida inklyuzivlik — bu faqat sinf ichidagi jarayon emas, balki maktab madaniyatining umumiy ko'zgusidir.

Tarbiya fanining o'ziga xosligi shundaki, u abstrakt tushunchalarga, qadriyat va xulq-atvor masalalariga tayanadi. Masalan, “adolat”, “vijdon”, “hurmat” kabi mavzularni tushuntirishda faqat og'zaki izoh yetarli bo'lmaydi. UDL bu jarayonda turli ifoda kanallaridan foydalanishni taklif etadi — video lavhalar, infografikalar, sahnalashtirish, ovozli hikoyalar orqali tushunishni yengillashtirish mumkin. CAST (Center for Applied Special Technology) qo'llanmalari [12] bu nazariyani amaliy darajaga olib tushadi: matnni soddalashtirish, lingvistik qo'llovlar (masalan, murakkab so'zlar uchun glosariy), differensial topshiriqlar, va tanlovli faoliyatlar o'quvchining shaxsiy ishtirokini kuchaytiradi.

Tarbiya darsida ko'p usulda ifoda (multiple means of representation) — bu o'quv materialini faqat o'qish orqali emas, balki ko'rish, eshitish, his qilish orqali tushunishdir. Masalan, “empatiya” mavzusida film parchalari, sahna ko'rinishlari yoki interaktiv suratlar orqali hissiy tahlil amalga oshiriladi. Bu vizual va audial kanallar o'quvchining emotsional idrokini faollashtiradi, shu orqali mavzuning mazmuni chuqurroq anglanadi.

Yevropa Agentligi tomonidan ishlab chiqilgan “Inclusive Teacher Profile” modeli [11] o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini to‘rt asosiy blok orqali ifodalaydi: qadriyatlar, bilim, ko‘nikma va refleksiya. Tarbiya fanida bu bloklar quyidagi ma‘noni oladi:

Qadriyatlar – inklyuzivlik, adolat, inson qadrini tan olish, bag‘rikenglik;

Bilim – psixologik-pedagogik nazariyalar, moslashtirilgan metodikalar;

Ko‘nikma – darsni dizayn qilish, hamkorlikni tashkil etish, ijtimoiy muammolarni tahlil qilish;

Refleksiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish va dars jarayonini qayta loyihalash.

Bu bloklar bir-birini to‘ldiradi va o‘qituvchining moslashuvchan pedagogik tizimini yaratadi. Natijada, o‘qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki sinfning ijtimoiy-psixologik muhitini boshqaruvchi shaxsga aylanadi.

Inklyuziv ta‘lim g‘oyasining nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, u insonparvarlik falsafasi, sotsial konstruktivizm va faoliyat nazariyasiga tayanadi. Tarbiya fani kontekstida bu yondashuv shaxsning ijtimoiy tajribasini hurmat qilish, o‘z fikrini erkin bildirish va o‘zaro munosabatlarda adolatni anglash imkonini beradi. Inklyuziv pedagogika ta‘limni “hamma uchun ochiq jarayon” sifatida talqin etadi va bu orqali o‘quvchi shaxsining qadrini tan olish hamda o‘z imkoniyatlari doirasida faol bo‘lishini ta‘minlaydi.

Tarbiya fanida inklyuziv metodlarning didaktik mohiyati ularning insonparvarlik mazmuni bilan uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Kooperativ ta‘lim, reflektiv suhbat, differensial yondashuv kabi metodlar o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik, tahlil va empatiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodlar nafaqat bilim berish vositasi, balki ijtimoiy muloqot, axloqiy qaror qabul qilish va o‘zini ifoda etish uchun muhim pedagogik maydonni shakllantiradi. Tarbiya fanining maqsadi – insonni jamiyatda mas‘ul, bag‘rikeng va faol subyekt sifatida shakllantirish – aynan shu metodlar orqali amaliy ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring Inclusive Pedagogy. // British Educational Research Journal. – 2011. – Vol. 37(5). – P. 813–828.

2. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986. – 544 p.

3. Haug P. Inclusive Education in Norway. // Scandinavian Journal of Disability Research. – 2017. – Vol. 19(3). – P. 177–193.

4. Rix J. Must Inclusion Be Special? – London: Routledge, 2013. – 202 p.

5. European Agency for Special Needs and Inclusive Education. Inclusive Education in Europe: Key Messages. Odense, 2014.

6. Wiliam D. Embedded Formative Assessment. – Bloomington, IN: Solution Tree, 2011.

7. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. – 2007. – Vol. 77(1). – P. 81–112.
8. Tomlinson C.A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms (2nd ed.). – Alexandria, VA: ASCD, 2001.
9. Loreman T., Deppeler J., Harvey D. Inclusive Education: A Practical Guide to Supporting Diversity in the Classroom (2nd ed.). – London: Routledge, 2010.
10. Ainscow M., Miles S. Making Education for All Inclusive // Prospects. – 2008. – Vol. 38. – P. 15–34.
11. European Agency. Teacher Education for Inclusion: Profile of Inclusive Teachers. – Odense, 2012.
12. CAST. Universal Design for Learning Guidelines Version 2.2. – Wakefield, MA: CAST, 2018.